“O’zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” nomli kitob-albomi nashr etildi

Ma’lumki, mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushi hamda front ortida jasorat ko’rsatgan ajdodlarimizga munosib e’tibor va ehtirom ko’rsatib kelinadi. Ularning nomlarini abadiylashtirish, beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g’alabaning 75 yilligiga bag’ishlab “G’alaba bog’i” memorial majmuasining barpo etilishi, u yerda “Shon-sharaf” davlat muzeyi, “Mangu jasorat” va “Matonat madhiyasi” monumentlarining, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarning qamrab olinishi buning yaqqol misolidir.

Mazkur yo’nalishlardagi ezgu faoliyatlarning uzviy davomi sifatida “9-may – Xotira va qadrlash kuni” umumxalq bayrami arafasida xalqimizning Ikkinchi jahon urushida erishilgan g’alabaga qo’shgan munosib hissasini chuqur o’rganish va targ’ib etish, unga doir yangi hujjatlar bilan xalqimizni tanishtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo’yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi “O’zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” nomli kitob-albomi tayyorladi va “O’zbekiston” nashriyoti tomonidan nashr etildi.



Joriy yil 7-may kuni “Shon-sharaf” davlat muzeyida mazkur kitob-albom taqdimoti o’tkazildi. Unda kitob-albom mualliflari, mutasaddi tashkilotlar vakillari, harbiylar, keng jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.





Kitob-albom O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk G’alabaning 75 yilligi hamda “Xotira va qadrlash kuni”ga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “G’alaba bog’i” yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bilan boshlanib, “G’alaba bog’i – Xotira va qadr maskani”, “Matonat madhiyasi” monumenti – ona Vatan ramzi”, “Mangu jasorat” monumenti”, “Shon-sharaf” davlat muzeyi”, “G’alaba bog’i” yodgorlik majmuasidagi ilmiy-ma’rifiy va ommaviy-madaniy tadbirlar”, “Minnatdorlik tuyg’ulari”, “Xalqaro e’tirof”, “Xalqimizning jasorati va matonati haqida hikoya qiluvchi yangi asarlar”, “Ikkinchi jahon urushi va O’zbekiston: yangi tadqiqotlar va izlanishlar obyekti”, “Mangu jasorat namunalari”, “Yangi arxiv hujjatlari”, “Front gazetalari”, “Askar xatlari”, “Mehr-saxovat va chin insoniylik namunasi”, “Unutmas sizlarni Vatan”, “Xalq jasoratiga ehtirom”, “Ajdodlar jasorati – tinchlik va taraqqiyotimizning mustahkam zamini” kabi bo’limlardan tarkib topgan. Mazkur kitob-albom shu kungacha o’rganilmagan yangi arxiv hujjatlari asosida o’zbek (kirill, lotin), rus va ingliz tillarida nashr etildi.